


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


3/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

3/2025

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Adizova O.I., Istamova U.R.	Ertaklar - xalq og‘zaki badiiy ijodining bebaho merosi	3
Kayumov N.N.	O‘rta asrlar she’rshunosligida tashxis badiiy san’atining nazariy xususiyatlariga doir qarashlar	9
Maxmudova M.M.	Y.V.Gyotening “G‘arb-u sharq” devoni tarjimasi S.S.Buxoriy talqinida	14
Ahatova D.D.	Omon Muxtor hikoyalarida davr tasviri ifodasi	18
Ganiyeva O.Kh., Ahmedova A.A.	“The dew breaker” asarida olam va odam munosabatlarining badiiy ifodasi	22
Beknazarova G.Q.	Chingiz Aytmatov ijodida bola obrazi	26
Nazarova G.P., Davronova R.A.	Comparative analysis of the novel “a thousand splendid suns” and its translations into russian and uzbek languages	30
Farmonova M.F.	Badiiy matn va kitobxon munosabati: qayta o‘qish yoki dekonstruksiya strategiyasi	34
Hamroyeva L.Z.	Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanidagi ko‘chimlar va stilistik jihatlar	38
Izamova N.O‘.	Detektiv adabiyot: tarixi, evolyutsiyasi va zamonaviy talqini	42
Jabborova D.Sh.	A comparative analysis of the concepts of “beauty” and “ugliness” in english and uzbek languages	49
Jamilova B.S., Sattorova M.Sh.	R.Kiplingning “Gunga din” she’riy balladasidagi lingvokulturemalar tahlili	54
Jumanova O.S.	Ingliz va o‘zbek lirikasida Saroymulkxonim siymosi: tarixiy haqiqat va badiiy talqin	61
Kaxarova M.Y.	Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasidagi lingvopoetik xususiyatlar	66
Niyazova M.Kh., Saidova D.Z.	An analysis of the challenges faced by american youth in Jack London’s “Martin Eden”	70
Radjabov R.R., Karimova M.I.	XVII asr fransuz adabiyotida asosiy oqimlar	74
Ravshanova G.Q.	Hajviy she’rlarda davr ziddiyatlari talqini	78

Bekova N.J., Xolmurodova G.Q.,	Bobur ijodida Xo‘ja Axror Valiy obrazi	82
Хажиева Ф.М., Рахимова Ш.Р.	Роль фрагментированной личности в романе «Трансатлантика» колума маккенна	86
Тўхсанов Қ.Р.	“Маснавий”да шер тимсолининг бадий ифодаси	91
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Hakimova M.I.	"Munshaot" toshbosma nusxasining matniy tahlili (muqaddima va 2-maktub misolida)	97
NAVOIY GULSHANI		
Bekova N.J., Zuxurova O.I.	Alisher Navoiy “Xamsa”sida besh raqamining ramziy-majoziy ma’nolari	101
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Orziyev M.Z., Boltayev O.O.	Jahon urushi davrida Buxoro va Turkistonda german-turk targ‘ibotchiligi	106
Qurbonov M.D.	Buxoro amirligi iqtisodiy hayoti Mirza Salimbek talqinida	111
Жуманазаров А.Р., Мамадалиева Н.С.	Амир Темур ва метрология: аниқлик куч манбаи сифатида	116
Нафиддинова Х.Р.	Диний қадриятлар ва маросимларнинг миллатлараро муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни	122
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Arslonov Z.D.	Yoshlar siyosatini amalga oshirishda yoshlarning funksional vazifasi	126
Xodjimuratova D.S.	Eronda parlament saylovlarining mamlakat siyosiy tizimiga ta’siri (tarixiy tahlil)	133
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Toyiroy A.Y., Valiyev O.Sh., Ergashov Z.B.	Qishloq va shahar hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni bartaraf etish	138

R.KIPLINGNING “GUNGA DIN” SHE’RIY BALLADASIDAGI LINGVOKULTUREMALAR TAHLILI

Jamilova Bashorat Sattorovna,

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Sattorova Maftuna Shavkatovna,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

smaftuna484@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvokulturemalarning badiiy matndagi o‘rni va badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinib, adabiy asarning mohiyatini kengaytirish hamda personajlarning til va xulq-atvor tarzlari orqali ularning ijtimoiy pozitsiyalari va madaniy darajalarini ifodalashdagi ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan R. Kiplingning “Gunga Din” she’ri tahlili orqali lingvokulturemalarning vazifalari yanada kengroq ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturema, realiya, lakuna, frazeologizm, lingvistik va ekstralingvistik omillar, ekzotik leksika(ekzotizmlar).

R.АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУР В ПОЭТИЧЕСКОЙ БАЛЛАДЕ КИПЛИНГА “ГУНГА ДИН

Аннотация. В этой статье анализируется роль и художественно-эстетические функции лингвокультур в художественном тексте и исследуется расширение сущности литературного произведения, а также важность персонажей в выражении их социальных позиций и культурных уровней посредством языка и способов поведения. В качестве объекта исследования был выбран р. Через анализ стихотворения Киплинга “Гунга Дин” задачи лингвокультур раскрываются шире.

Ключевые слова: лингвокультурема, реалия, лакуна, фразеологизм, языковые и экстралингвистические факторы, экзотическая лексика(экзотизмы).

ANALYSIS OF LINGUOCULTURAL ELEMENTS IN R. KIPLING'S POETRY BALLAD "GUNGA DIN"

Abstract. This article analyzes the role and artistic and aesthetic functions of linguoculturemes in the artistic text and explores the importance of the literary work in expanding its essence and expressing their social positions and cultural levels through the language and behavioral patterns of the characters. Selected as the object of study R. Through Kipling's analysis of the poem “Gunga Din”, the functions of linguoculturemes are revealed more broadly.

Keywords: linguoculturema, realia, lacuna, phraseologism, linguistic and extralinguistic factors, exotic lexicon (exotisms).

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri til va madaniyat bog‘liqligini tadqiq etishga qaratilganligi sababli so‘nggi yillarda lingvokulturologiya fani sohasidagi tadqiqotlar soni ko‘paymoqda (S.A.Askoidov-Alekseyev, N. D.Arutyunova, N.N. Boldirev, S.G.Vorkachev, A.A.Vorobyev, A.Vejbitskaya, Ye.S.Kubryakova, D.S.Lixachev, V.A.Maslova, Z.D.Popova, Yu.S.Stepanov, I.A.Sternin va boshqalar.). Yurtimiz tilshunos olimlarining (D.Ashurova, Sh.Safarov, O‘. Yusupov, M.D.Djusupov, A.Abduazizov, J.Yoqubov, G.Maxkamova va boshqalar.) lingvokulturologiyaning tayanch tushunchalaridan biri bo‘lgan konsept muammolariga qaratilgan tadqiqotlari bilan lingvomadaniyatshunoslik sohasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalari – bu “lingvokulturema” termini bo‘lib, u o‘zida madaniyatning bir bo‘lagini aks ettiradi va termin sifatida V.V.Vorobyev tomonidan ilk bor ilmiy muomalaga olib kiritilgan. Hozirgi tilshunoslikda lingvokulturema til sathi birligi deb qaraladi va unda lingvistik va ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo‘lib, bu yaxlitlik o‘z ichiga tushunchaga oid va predmetga oid mazmunni qamrab oladi. Dialektik aloqa obyektni anglash jarayonida bir tomondan lingvokulturemaning tilga oid va tildan tashqari komponentlarini, ularning notengligini, farqini, ikkinchi tomondan ularning mosligini, aynan o‘xshashligini taqozo etadi. Til lingvokulturemaning tarkibiy qismi sifatida nafaqat uning “yuzaki”, ya’ni tilga oid o‘z ma’nosi haqida, balki uning tugal” mazmuni (ma’nosi) madaniyatning asosi (elementi, segmenti) ekanligi haqida xabar beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotchi V.V.Vorobyev, lingvokulturemaning tuzilishi va tarkibini o'rganib, o'z e'tiborini til birliklarini "madaniylashtirish" jarayonida til o'rganuvchilarni ma'nodan, "aniqlashdan" bilim tomon olib borishga va belgi-predmetni u yoki bu millatga xos bo'lgan madaniy assotsiatsiyalar tarmog'iga kiritishga qaratadi. Uning fikricha, "tarkibida yashirin mavjud bo'lgan "teran mazmun" lingvokulturemaning madaniy-tushunchaga oid ma'noviy jihati ochiladi"[15,245]. Har qanday kommunikatsiyaning oxirgi natijasi xususan tilni tushunish emas, balki tildan tashqaridagi ma'lumotni (shu jumladan, uning doirasida munosabat amalga oshiriladigan madaniyatni) o'zlashtirishdir.

Lingvokulturemalar o'z ifodasida rang-barangdir - ular so'z bilan, so'z birikmasi bilan, matn abzatsi bilan, she'r bilan va hatto bir necha uzunlikdagi matn bilan berilishi mumkin. Bu birlik o'z mazmuniga ko'ra so'zga qaraganda ancha "terandir"[7,83]. So'z referent bilan o'zaro bog'lanishda bo'ladi, unga "havola qilinadi", lingvokulturema uning mazmunini tushuncha (predmetlar sinfi) sifatida ochib beradi. Birinchisi realemlar bilan cheklanadi, ikkinchisi - biror belgi bilan o'zaro bog'lanishda bo'lgan predmetlar sinfi ichidagi realiyalarning o'ziga xos xususiyatini va sistematzatsiyasini (tartibga solinishishni) aks ettiradi. "Lingvokulturema ham o'z til tasavvurini ("fikir shaklini"), ham u bilan uzviy bog'langan "tildan tashqari, madaniy muhitni" (vaziyatni, realiyani) hamda chegaralari beqaror va barqaror assotsiatsiyalar tarmog'ni o'z ichiga oladi, o'zida to'playdi[7,83]. Shu tufayli ham so'z-belgi alohida madaniy kommunikatsiyaning tilini biladigan odamda ma'noni nafaqat ishora tarzida, balki "madaniy oreolning" butun majmuini uyg'otadi.

B.B. Vorobyev lingvokulturologik tahlilning asosiy birligi - lingvokulturema tushunchasini olib kiradi va unga-lisoniy va nolisoniy (tushuncha va predmet) mazmunning dialektik birligi deb ta'riflaydi. [15,44-45]. So'zning lingvokulturemadan farqini esa A.A.Potebnyaning - so'zning yaqin va uzoq ma'nosi tushunchasi orqali izohlaydi. [8.249-260]

Lingvokulturema so'zdan farqli ravishda birmuncha murakkab tuzilishga ega: uning mazmun plani ikkiga: lisoniy ma'no va madaniy mazmunga bo'ladi. Bu birlik konnotativ mazmunga ega bo'lib, - uni yuzaga keltirgan mafkuraviy kontekst tugamaguncha yashayveradi [15, 52]. Birlik so'z va davomiylikdagi matn sifatida ifodalanishi mumkin.

Yuqorida tahlil qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda lingvokulturemani quyidagicha ta'riflash mumkin:

Lingvokulturema - bu muayyan bir xalqning, millatning moddiy va ma'naviy madaniyatini, butun borligini til va nutq birliklarida ifodalaydigan kompleks lisoniy-madaniy birlikdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Angliya bolalar adabiyoti taniqli namoyondalaridan biri Redyard Kipling 1865-yil Bombayda dunyoga keldi. Lekin ota-onasi londonlik edi. Yosh Redyardning Bombaydagi bolalik yillari nihoyatda unitilmas baxtli onlarga boy bo'lib, u ajib ohang va manzaralardan bahramand bo'lardi. Redyard 6 yoshga to'lganda ota-onasi uni qattiqroq usullarda tarbiyalash maqsadida Angliyaga yuborishgan va u Londonda kapitan Proys Ejyer xonadonida yashagan [6,31]. Redyard 12 yoshga to'lganda Baydford yaqinidagi Birlashgan Harbiy kuchlar kollejiga kiradi va u yerda otasining do'sti Kormel Prays uning adabiy qobiliyatini kuchaytiradi. Redyard 16 yoshga kirganda ota-onasi yashayotgan joy Lahorga qaytadi. O'zining qisqa bo'sh vaqtlarida ko'pgina ajoyib she'rlar va hikoyalar yozadi. Ushbu hikoyalar va she'rlarning to'planib kitob tarzida chop etilishi Redyardning shuhrat qozonishiga asos bo'ldi. Kipling 1889-yilda Angliyaga qaytdi va "Kazarma balladasi" asari va bir necha mukammal hikoyalari unga keskin mashhurlikni olib keldi. Redyard Kiplingning "The absent-minded Beggar" ("Parishonxotir tilanchi") she'ri "Bur" jangida Britaniya askarlari foydasiga katta miqdorda mablag' olib keldi. R. Kipling Birinchi jahon urushi bo'lishini oldindan ko'ra oldi va xalqni tayyorgarlik ko'rishga ehtiyoj borligi haqida ogoh etishga harakat qildi. 1915-yilda qizining ayanchli vafotidan so'ng (1899-yilda qizi Jozefina vafot etadi) ikkinchi bor 18 yashar o'g'lini "Lu" jangida yo'qotishdan aziyat chekdi. Shunga qaramay Kipling yozishda davom etdi. Uning urushdan keyin yozilgan hikoyalari uning eng yaxshi asarlari hisoblanadi. Shuningdek, yozuvchining Janubiy Afrikadagi Armiya Gazetasi uchun yozilgan ishlanmalari mavjud. Redyard Kipling faqat shoir emas, katta nosir ham edi, ko'pdan-ko'p chiroyli qissa, hikoya va ertaklar yozib qoldirgan. Uning mashhur "Maugli", "Rikki Tikki-Tavi" ertak qissalari XX asrning 70-yillaridanoq o'zbek tilga tarjima qilingan va nashr etilgan. Keyingi yillarda yana uning "Yer tepingan parvona", "Kitga bunaqa xartum qayoqdan kelgan?", "Karkidonga bunaqa teri qayoqdan kelgan", "Tuyaga o'rkach qayoqdan kelgan?" kabi ertaklar o'zbek tiliga tarjima qilindi. R.Kipling bolalarga bag'ishlangan she'rlarida, xoh she'r kichik yoshdagilar uchun, xoh kattaroq yoshdagilar uchun bo'lsin, ularning aniq holatini mahorat bilan, goh kinoyali, goh yoqimli kulgi tabassum bilan ifodalaydi. Poklik, ozodalik, mehnatsevarlik g'oyalarini ham xuddi shu yo'l bilan ilgari suradi. Redyard Kipling 1936-yil 18-yanvarda vafot etdi. U 1907-yilda adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi [6.31]. Umrining katta qismi Hindistondan tashqarida o'tgan bo'lsa-da, u o'zini doimo ingliz-hind kabi his qilgan. Va bu odamlarning juda o'ziga xos toifasi edi. Angliya bilan jonli aloqani saqlab qolish bilan birga, u Hindistonni o'z mamlakati

deb bilgan. Tahlil uchun tanlangan “Gunga Din” she’ri yuqoridagi fikrlarning yaqqol dalili sifatida keltirish mumkin.

R.Kiplingning Gunga Din she’ri 1890-yilda yozilgan bo‘lib, “Barrack-Room Ballads, and Other Verses” to‘plamiga kiritilgan eng mashhur misralaridan biridir. U “Tommy”, “Fuzzy-Wuzzy”, “Danny Deever” va boshqalar bilan bir xil kokney lahjasida yozilgan. “Gunga Din” she’ri o‘n to‘qqizinchi asrning so‘nggi o‘n yilliklarida Hindiston qanday bo‘lganini, odamlarning hayoti tarzini va inglizlar ham shunday keng, rang-barang mamlakatni qanday boshqarganligini ko‘rsatadi. She’r ingliz askari tilidan uning hayotini saqlab qolganidan keyin ko‘p o‘tmay o‘z hayotini yo‘qotgan mahalliy suvchiga hurmat va e’tirofini bildirish maqsadida aytiladi. Rudyard Kiplingning “Gunga Din” she’rida Bhisti (kambag‘al suv olib yuruvchi) Gunga Din qahramon sifatida tasvirlangan. She’rda u Britaniya armiyasi uchun xizmat qilayotgan, ammo o‘zining ijtimoiy maqomi past bo‘lgan bir shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Gunga Din o‘z vazifasini fidokorona bajargan, har doim yordam berishga tayyor bo‘lgan, garchi u o‘z hayotini xavf ostiga qo‘ygan bo‘lsa ham. Uning mehnati va jasorati ko‘pchilik tomonidan qadrlanmaydi va unga ko‘pincha past nazar bilan qaraladi. Biroq, she’rning oxirida, uning haqiqiy qahramonligi va mardligi tan olinadi. U o‘z jonini fido qilib, askarlarni qutqarishga harakat qiladi va nihoyat, o‘zining fidokorona xizmati tufayli askarlarning hayotini asrab qolishga erishadi.

She’rda Gunga Din orqali Kipling ijtimoiy adolatsizlikni va ma’naviy qadriyatlarni ta’kidlaydi: haqiqiy qahramonlik ko‘pincha past tabaqalardan chiqarib olinadigan oddiy insonlarda namoyon bo‘ladi, ularning jasorati va sadoqati e’tibordan chetda qolishi mumkin, lekin bu insonlar aslida haqiqiy qahramondir degan g‘oya tatbiq etiladi. She’r Hindistondagi ingliz askarining nuqtayi nazaridan qofiyali hikoya tarzida bayon etiladi. Oxirgi uchta satrda askar Dinga qilgan haqoratidan afsuslanadi va Din eng yaxshi odam ekanligini tan oladi. Kiplingning keyingi “White Man’s Burden” she’ridan farqli o‘laroq, “Gunga Din” hindlarning nomi bilan atalgan va uni yarador askarlarga hamroh bo‘lib, jang maydonida xavf-xatarga duch kelishdan qo‘rqmaydigan qahramon sifatida tasvirlaydi: “The narrator, who, as would be reasonable to suggest, reflects Kipling’s own views, uses racist language in describing Gunga Din and how he was abused by the British soldiers, including himself. However, this veteran of war, who recollects his military experiences in “Injia’s sunny clime”, ends his story with a frank admission that Gunga Din was a better man than him [3,3]. “Though I’ve belted you and flayed you, By the livin’ Gawd that made you, You’re a better man than I am, Gunga Din!” [10.25]

Tahlil va natijalar. Maslovaning lingvokulturemalar tasnifiga asoslangan holda, tilning ekvivalentsiz lug‘at qatlami-lakuna va realiyalar, tilning frazeologik fondi, metafora va simvollar kabi lingvomadaniy birliklarni Kipling ijodida keng foydalanilganligini ko‘rish mumkin[5.28,29].

Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar mavjud bo‘ladi. Bunday so‘zlarga muqobilsiz leksika deyiladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. U ko‘pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa, uzunlik birliklari, ro‘zg‘or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik-ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so‘zlardan tarkib topadi. Muqobilsiz leksika boshqa tilga o‘zlashtirilganda ularga ekzotik leksika (ekzotizmlar) deyiladi. Ekzotizmlar va etnografizmlar o‘zga madaniyatning ramzi sanaladi. Jumladan, spiker, kriket, shilling- Angliya; yaylov, qishloq, ariq, dehqon, cho‘l – O‘rta Osiyo; sakura, geysha, ikebana, sake yapon madaniyatining belgilarini assotsiatsiyalaydi. O‘zbek madaniyatining belgilarini palov, patir, sumalak, ko‘rpacha, belbog‘ (belida belbog‘i bor), do‘ppi (do‘ppisi osmonda, do‘ppi tor) va h.k. so‘zlarda ko‘rish mumkin.

Muqobilsiz leksikani boshqa tilga tarjima qilib berish o‘zini oqlamaydi. Shuning uchun uni transliteratsiya yo‘li bilan talqin etish maqsadga muvofiqdir. Amerika Qo‘shma Shtatlari “dollar”ining, ingliz “funt sterling”ining, nemis “marka”siyu hind “rupiya”sining, afg‘on “afg‘oniy”sining transliteratsiya qilinmasdan, o‘zbek “so‘m”i bilan almashtirib qo‘yilishi, AQSh “brendi”si, ingliz “viski”si, nemis “shnapse”sining rus “vodka”si orqali talqin etilishi ingliz boshiga “shlyapa” o‘rniga o‘zbek “do‘ppi”sini, egniga “palto” yoki “plashch” o‘rniga “to‘n” yoki “yaktak” kiygizib qo‘yish bilan baravar. Bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi. Lakunalar (lot. lacuna – bo‘shliq, chuqurlik, cho‘nqir joy) matnda bo‘sh qolgan, tushib qolgan joy, “tilning semantik xaritasidagi oq dog‘lar”dir. Muqobilsiz leksika singari lakunalar ham tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida “yurist, advokat” ma’nosini anglatgan “lawyer” so‘zidan boshqa advokatlik kasbining turli tumanligini ifodalaydigan attorney -vakil, barrister -oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan advokat, solicitor - mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega, counsellor- maslahatchi, advocate -oliy darajadagi advokat kabi so‘z birliklariga o‘zbek va rus tillarida qayd qilingan ifodalardan faqat bir advokat so‘zigina muqobil bo‘ladi. R.Kiplingning Gunga Din she’riy balladasida ham asosan Hindistonda ro‘y bergan voqealar tasvirlangan hamda asosiy qahramon ham hind bo‘lganligi sababli “bhishti”, “mussick”, “juldee” kabi hindcha so‘zlarning inglizcha muqobilsiz (mavjud emas) berilishi ham bejiz emas. Bu kabi

LITERARY CRITICISM

muqobilsiz til birliklari ham muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odati, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodolovchi so'z va so'z birikmalari bo'lib, milliy va davriy xususiyatlarga egadirlar. "Gunga Din" ning birinchi bandi ma'ruzachi(askar)ning tinglovchilarga murojaati bilan boshlanadi. Lirik qahramon tinglovchiga askar sifatida xavfsiz bo'lganingizda va kichik janglarda qatnashganingizda "aroq va pivo" ichish mumkinligini aytadi. Ammo, haqiqiy xatarli yirik urushlar bo'lganda, hamma narsa o'zgaradi. Unda dam olishga vaqt ham, yoqimli ichimliklar ham yo'q. Buning o'rniga, siz suvga qanoat qilishingiz kerak bo'ladi. Aynan shu nuqtadan Gunga Din hikoyasi boshlanadi.

You may talk o' gin and beer
When you're quartered safe out 'ere,
An' you're sent to penny-fights an' Aldershot it;
But when it comes to slaughter
You will do your work on water,
An' you'll lick the bloomin' boots of 'im that's got it.
Now in Injia's sunny clime,
Where I used to spend my time
A-servin' of 'Er Majesty the Queen,...[10,23]

Ushbu baytning yettinchi qatorida she'r davomida ko'pincha izohlash qiyin bo'lgan shevada gapiradigan notiq Hindistonga ishora qilish uchun "Injia" so'zidan foydalanadi. U o'zining ingliz safdoshlari bilan birga u yerda (jang maydonida) Qirolicha hazratlari uchun kurashayotganini aytib o'tadi.

Of all them blackfaced crew
The finest man I knew
Was our regimental *bhisti*, Gunga Din,
He was 'Din! Din! Din! [10,23]

Bhishti - Janubiy Osiyoning, jumladan, Hindistonning an'anaviy suv tashuvchisi; ular odatda suvini echki terisidan yasalgan idishda olib yurishadi. Qizig'i shundaki, Kipling bu personajga shunchalik kuchli hayratda bo'ladiki, hatto she'rga uning nomini berishga qaror qiladi.

Bhishti yoki Bahishti - Shimoliy Hindiston, Pokiston va Nepalda joylashgan musulmon qabilasi yoki oilalaridir. Ular Abbosiy, Bahishti Abbosiy, Shayx Abbosiy va Saqqa nomi bilan ham mashhur. Ular ko'pincha Abbosiy yoki Shayx Abbosiy nomlaridan foydalanadilar. Shayx Abbosiy arab qabilasi Banu Abbosga mansub sulola davomchilaridan biridir. "Bhistis" an'anaviy ravishda harbiy xizmatda suv tashuvchi sifatida xizmat qilgan. Tarixda birinchi bo'lib qayd etilgan Bxistiy "Hazrati Abbos" eramizdan avvalgi 680 yilga borib taqaladi. Imom Husayn va uning qo'shini Damashqda olib borayotgan urushda Abbos Husayn va uning qo'shiniga suv olib kelish uchun Furot daryosidan o'tib halok bo'lgan.



Kipling "Gunga Din" she'rida suv tashuvchini "bhisti" orqali ifodalab, uning musulmon ekanligiga ishora qilgan. Zotan, musulmon bo'lmagan Hindiston hindulariga xizmat qiluvchi suv tashuvchiga nisbatan "pani wallah" birikmasi qo'llanilgan: "Bhisti: Water-carrier. The 'bhisti' must not be confounded with the 'pani wallah', who performs for Hindoos the service that the 'bhisti' performs for Mohammedans. The 'pani wallah' must always be a Brahman, so that Hindoos of all castes can accept water from him. The Mohammedan water-carrier is usually a very cheerful, obliging fellow, ready to turn his hand to any kind of camp work"[9,34].

'You 'eathen, where the mischief 'ave you been?

'You put some *juldee* in it

'Or I'll *marrow* you this minute

'If you don't fill up my helmet, Gunga Din!'[10,24]

Yana bir tarjima va izohlarsiz qo'llanilgan hindcha so'z "juldee" bo'lib lug'atlarda quyidagicha izohlanadi:

Jonatan Greenning "Dictionry of Slang" lug'atida "jildi" shaklida berilib, "*jadi*", "*jildy*", "*juldi*" shakllari ham ko'rsatilib o'tilgan. *Jildi also jadi, jildy, juldee, juldi-to* move fast, to hurry, to smarten up; often as excl. *jildi!* hurry up!(tez harakatlanmoq, shoshmoq) Bu so'z Partrij Erikning "Dictionary of Forces' Slang" lug'atida yanada kengroq izohlangan: "Jildi, hurry! Also *get a jildi on*. (Indian Army.) *jildi move, do*, to beat a hasty retreat. General Army slang [...] Among tank men: to take evasive action." Demak, "juldee" so'zi hind tiliga mansub bo'lib, asosan askarlar tilida foydalanilgan va "tez harakatlanmoq, shiddatli jang qilmoq" ma'nolarini anglatadi. Bu o'rinda Kiplingning aynan hindcha so'zning aslini qo'llashidan maqsad o'quvchiga tasvirlanayotgan muhitni yanada yorqinroq va tushunarli bayon etishdir.

The uniform 'e wore

Was nothin' much before,

An' rather less than 'arf o' that be'ind,

For a piece o' twisty rag

An' a *goatskin water-bag*

Was all the field-equipment 'e could find.

When the sweatin' troop-train lay

In a sidin' through the day,

Where the 'eat would make your bloomin' eyebrows crawl,...[10,24]

Ushbu badda lirik qahramon tilidan Gunga Dinning nochor ahvolini "uning o'ranish uchun pir parcha matodan bo'lak boshqa formasi(kiyimi) yo'qligi va yagona mulki suv idishi ekanligi" bilan tasvirlaydi. Goatskin water-bag-echki terisidan qilingan suv tashishga moslashgan qop-idish. Bu so'z birikmasi o'zida madaniy informatsiya tashiganligi tufayli ham lingvokulturema sifatida tahlil qilinishi afzaldir. "In the East from time immemorial water-carriers have carried their water in leather bags. In the Indian army goatskin is the material of which the bag must be made, as Mohammedans could not drink from a bag made of pigskin, and Hindu religious prejudice would be offended by the use of calf-skin"[9,34]. Ma'lumki, Qadimiy Sharq suv tashuvchilari teridan tayyorlangan qop-idishlardan foydalangan. Ammo Hind armiyasida bu idish echki terisidan tayyorlanishi qat'iy shart bo'lgan, chunki armiya tarkibidagi musulmon askarlar cho'chqa terisidagi idishdan suv ichishmagan, hind diniy aqidalariga ko'ra muqaddas hisoblangan sigir terisidan foydalanish esa taqiqlangan. Tahlil qilingan lingvokulturema o'sha davrning tarixi va madaniyatini yoritib, hind xalqining ijtimoiy pozitsiyasi hamda etnik identifikatsiyasini aks ettiradi. Frazologik birliklarni ham lingvokulturema deb atash olimlar tomonidan maqsadga muvofiq deb topilgan. Frazologik birliklar yoki lingvokulturemalarni keng ko'rib chiqish bilan biz tushunishning mutlaqo yangi darajasiga -lingvistik shaxsga, so'ngra tegishli etnik guruhdagi dunyoning lingvistik manzarasiga erishishimiz mumkin. Frazologik iboraning turg'un tuzilishi uning intralingvistik idiomatikligini va frazeologik birlik ma'nosining tarkibiy qismlarining tegishli ma'nolaridan kelib chiqmasligini yaratadi. Muayyan madaniyatga xos bo'lgan va frazeologik aylanishda o'z aksini topgan muayyan munosabat, urf-odat va an'analar avloddan-avlodga o'tib boradi, bu esa boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilish imkonini bermaydi[13,200-250].

'E would *dot an'* carry one

Till the longest day was done;

An' 'e didn't seem to know the use o' fear.

If we charged or broke or cut,

You could bet your bloomin' nut,

'E'd be waitin' fifty paces right flank rear.[10,25]

“Dot and carry one” iborasi oqsoqlangan odamni tasvirlash uchun foydalanilgan ancha eskirgan majoziy birikmadir. Garchi bu ibora birinchi marta 1775-yildan boshlab yog’och oyoqli odamlarga nisbatan ishlatilgan bo’lsada, adabiy asarlarda oqsoqlanuvchi personajlar tavsifida keng qo’llanilgan. Bir nechta lug’atlar tahliliga ko’ra “Dot and carry one” iborasining yigirmaga yaqin izohi mavjud.

“Person with a wooden leg. The “dot” is the pegged impression made by all wooden legs before the invention of the modelled foot and calf. The “one” is the widowed leg”. J.R.Warening “*Passing English of the Victorian era: a dictionary of heterodox English, slang and phrase*” lug’atidagi bu frazeologik birlikdagi “dot” modellashirilgan zamonaviy oyoq qurilmalari ixtiro qilingunga qadar oyoq o’rnida foydalanilgan yog’och moslama, “carry” oyoqning sog’lom jufti(beva oyoq) sifatida izohlangan. [2,36]. Fransis Grosning “A Classical Dictionary of the Vulgar Tongue” lug’atida “dot and go one” shaklida berilib, quyidagicha ta’riflanadi: *Dot and go one, [...] generally applied to persons who have one leg shorter than the other, and who, as the sea phrase is, go upon an uneven keel(Dot and go one iborasi odatda bir oyog’i keyingisiga nisbatan kaltaroq bo’lgan insonlarga nisbatan qo’llaniladi...)*. R.Kiplingning “Gunga Din” she’rida ham bu ibora orqali aynan insonning oqsoqlanish nuqsoni nazarda tutilayotganini quyidagi satrdan ham aniqlash mumkin:

‘You limpin’ lump o’ brick-dust, Gunga Din! [10,25]

Misradagi “limpin”- limping, to limp “walk with difficulty, typically because of a damaged or stiff leg or foot” so’zi oyoqning jarohatlanishi yoki og’riq tufayli qiyinchilik bilan harakatlanish ma’nosini bildiradi[17,1005-1012]. Frazeologik birliklar o’zlarida nafaqat lingvistik, ba’lki ekstra-lingvistik ma’lumotni ham birlashtiradilar. Ular biron bir xalqning madaniyati, tarixi va ma’naviy qadriyatlarini ochib berganlari tufayli frazeologik birliklarni lingvokulturema deb tan olish mumkin. Ammo shuni ta’kidlash joizki, har bir frazeologik birlik ham lingvokulturema bo’la olmaydi, chunki buning uchun ularning semantikasida madaniy markerlangan axborot mavjud bo’lishi kerak. Masalan, “Go through fire and water” (qiyinchilik, azob uqubatlarni yengib o’tmoq) iborasi o’rta asrlarda ayblanuvchini qizdirilgan temir ustida ushlab turish yoki yurgazish, yoki ularni suvga tashlash shaklida sud qilish amaliyotiga ishora qilingan. Insonlarning bunday azobni yengib o’tishlaridagi holatlariga o’xshatish orqali xalq tilida qiyin vaziyatlarni boshidann o’tkazgan insonlarga nisbatan bu frazeologik birlik ishlatila boshlagan. Shu sababli, “go through fire and water” frazeologik birligini ham lingvokulturema deb atashimiz mumkin. Xuddi shuningdek, “dot and carry one” iborasi ham urush davrida bir oyog’idan ayrilgan va faqatgina sog’ qolgan oyog’iga tayangan insonlarga ishlatilib, keyinchalik umumiy lashadi va barcha oqsoq kishilarga nisbatan ishlatila boshlagan.

Xulosa. Ma’lumki, har bir madaniyatning o’ziga xos me’yorlari mavjud bo’lib, ular o’z qadriyatlari va madaniy me’yorlari nuqtai nazaridan atrofda dunyoga qarashni, uni tushunish va talqin qilishni va shunga mos ravishda dunyoning o’ziga xos milliy-tipik o’lchovini aks ettiradi. Milliy xarakterni lingvokulturemalar orqali o’rganish lingvokulturologiyada asosiy o’rinni egallaydi. Majoziy iboralarning lingvistik xotirasi madaniyatning o’tgan merosini, har bir etnik guruhning madaniy identifikatsiyasi uchun muhim bo’lgan standartlar, ramzlar va stereotiplarning birlashmalari va asoslarini saqlaydi va takrorlaydi. Shunday qilib, lingvokulturema alohida til madaniyatining teranligi va milliy xususiyatlarini ochib beruvchi, madaniy jihatdan belgilangan lingvistik hodisadir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. R.Kiplingning “Gunga Din” she’ridagi lingvokulturemalar matnning mazmunini chuqurroq anglashga imkon yaratadi hamda tarixiy, ijtimoiy, emotsional jihatlarni tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. *Stylistics of Literary Text*. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. – 272 b.
2. J.R.Ware “*Passing English of the Victorian era: a dictionary of heterodox English, slang and phrase*”, 1909
3. Goran Petrović. *Anglo-Saxonist Implications of Rudyard Kipling’s Unequal Portrayal of Two Conquered Peoples in “Gunga Din” and “Norman and Saxon”*. In *SKASE Journal of Literary and Cultural Studies* [online]. 2024, vol. 6, no. 1 [cit. 2024-06- 30]. <http://www.skase.sk/Volumes/JLCS12/01.pdf>. ISSN 2644-5506-17b
4. Komilova G. *Lingvokulturologiya yangi fan sifatida* // “Экономика и социум” №12 (91) 2021
5. Maslova V.A. *Лингвокультурология*. – М.: Изд.центр академия, 2007. -169 b
6. Miraziz A’zam. *Jahon bolalar adabiyoti*.-Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiyot uyi, 2016.-31 b.

LITERARY CRITICISM

7. Ma'matov A.E. *Zamonaviy Lingvistika. Toshkent "Tafakkur avlodi" 2020.* - 168 b
8. Potebnya A.A. *Мысль и язык. Слово и миф. М.: Правда, 1989.*
9. Ralph Durand. *A Handbook to the Poetry of Rudyard Kipling. Garden city, Nyu York. Doubleday, Page and Company, 1914.* – 386 b.
10. Rudyard Kipling. *Barrack-Room Ballads, and Other Verses. Methuen and Co. 18 Bury Street, W.C.London, 1892. Third Edition.* – 250 b
11. Saidova M., Qo'ziyev U. *Lingvokulturologiya.* - Namangan, 2017. - 127 b.
12. Tarasov B.F. *Yazik kak sredstvo translyatsii kulturi.*- M., 2000. - 53 b.
13. Teliya V. N. *Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты.* –М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 b.
14. To'xtaxodjaeva N.A. *Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalanishi (ingliz va o'zbek tillari misolida).* F.f.f.d. (Phd) diss. Avtoref. - T., 2017.
15. Vorobyev V.V. *Lingvokulturologiya.* - M., 2008. - 336 b.
16. Yusupov O'. *Tilshunoslikda yangi yo'nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim istilohlar. Filologiya masalalari.* - T., 2011. - №2. - 9-15 b.
17. *Cambridge Idioms Dictionary. 2nd edition.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2006
18. *Cambridge International Dictionary of English.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 1774 p.